



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 1525-3
2026 - yil 30 - Yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKAS VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI O'ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA
SOLISH AGENTLIGINING
QARORI

“Oziq-ovqat mahsulotlariga, ularni ishlab chiqarish vositalariga va xalq iste'moli mollariga sanitariya-epidemiologik xulosa berish tartibi to'g'risida yo'riqnomani tasdiqlash haqida”gi qaror, shuningdek unga o'zgartirish va qo'shimchalarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-noyabrdagi 720-son “Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga sanitariya-epidemiologik xulosa berish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida”gi [qaroriga](#) muvofiq O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi qaror qiladi:

1. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.
2. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.
3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir
2026-yil 28-yanvar
01-son



XUDAYAROV ASILBEK
ANVAROVICH

Direktor
2026-yil 26-yanvar
01-13-282-son



JUMANAZAROV AKMAL
RUZIKULOVICH

Kelishildi:

Direktor
2025-yil 29-dekabr



ORTIKOV AKMALXON
JURAXONOVICH

Rais
2025-yil 26-dekabr



TURAXUJAYEV HALILILLO
SOBIRJONOVICH

Vazir
2025-yil 26-dekabr



ABDURAXMONOV IBROXIM
YULCHIYEVICH

Rais
2025-yil 26-dekabr



VAXABOV DAVRON
ABDUJALALOVICH

Vazir
2025-yil 25-dekabr



XAMRAYEV SHAVKAT
RAXIMOVICH

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2026-yil
28-yanvardagi 01-son va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2026-yil
26-yanvardagi 01-13-282-son qaroriga

ILOVA

**O'z kuchini yo'qotgan deb topilayotgan idoraviy normativ-
huquqiy hujjatlar
RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining 2005-yil 30-sentabrdagi 01-1/54, 1-son "Oziq-ovqat mahsulotlariga, ularni ishlab chiqarish vositalariga va xalq iste'moli mollariga sanitariya-epidemiologik xulosa berish tartibi to'g'risida yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 1525, 2005-yil 28-noyabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005-y., 47-48-son, 360-modda).

2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining 2017-yil 7-dekabrdagi 126, K-8-son "Oziq-ovqat mahsulotlariga, ularni ishlab chiqarish vositalariga va xalq iste'moli mollariga gigiyenik sertifikati berish tartibi to'g'risida yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi qarorga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori (ro'yxat raqami 1525-1, 2018-yil 15-yanvar) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2018-y., 10/18/1525-1/0566-son).

3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining 2018-yil 22-oktabrdagi 49, 323-son "Oziq-ovqat mahsulotlariga, ularni ishlab chiqarish vositalariga va xalq iste'moli mollariga sanitariya-epidemiologik xulosa berish tartibi to'g'risida yo'riqnomaga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qarori (ro'yxat raqami 1525-2, 2018-yil 8-noyabr) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2018-y., 10/18/1525-2/2171-son).